

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBIR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI
III-BOSQICH TALABASI
«MUSIQA TARIXI» FANIDAN

KURS ISHI

MAVZU: XVIII ASR MUSIQA MADANIYATI

TARIXIDA GLYUK IJODI

MUSIQA TA'LIMI 5111100

RAXBAR :

M.Xakimov

BAJARUVCHI:

D.Sultonova

ANDIJON-2015

MAVZU: XVIII ASR MUSIQA MADANIYATI
TARIXIDA GLYUK IJODI

Reja:

Kirish

I. Asosiy qism

1. XVIII asr musiqa madaniyati.
2. Glyuk operalari.
3. Glyuk opera islohatining cheklanganligi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

KIRISH

Jamiyat hayotining g'oyaviy soxalaridagi, shu jumladan san'atdagi okimlar kurashi kankret milliy – tarixiy shart-sharoitlarga karab ayrim mamlakatlarda ham xar xil tus olgan va natijada o'sha paytlarda xali yosh bo'lgan Burjuaziya sinfining fiodal tuzumga qarshi kurashidan iborat bo'lgan.

Musiqqa san'atida bu kurash musiqali teatr soxasida ayniksa keskin bo'lgan. Italiya, Fransiya, Angliya va Germaniyada afsonaviy sujetlarga, kadimgi dunyo tarixiga asoslangan, jonli kizikishini yokotib ko'ygan va actual bo'lmay kolgan “Katta” operalar hali ham ko'yilgan. Manzaralarni sirtdan dabdabali va ser xasham qilib ko'rsatish maqsadi ko'zlangani uchun ularda badiiy va dramatic xaqiqat qurbon bo'lib kelgan. Bu xildagi opera asosan saroy doirasidagi aslzoda axliga xizmat qilgan, jmiyatdagi ilg'or demokratik katlamlarning karashlari va didlariga mos kelmagan. Shu operaga qaramaqarshi, realistic an'analarni o'z ichiga olgan demokratik opera san'ati vujudga kelib rivojlanib borgan.

Lekin cholg'u musiqqa soxasida ham sanatkorlar umrini yashab bo'lgan, eskib kolgan barcha narsalarni yengish vazifasini qo'yishdi, yangi mazmunni shakllantirish va gavdalantirib ko'rsatish talab qilingan.

Cholg'u musiqa (simfoniya, sonata, konsert, kamer ansambli janrlari)da sonata – simfonik prinsiplari paydo bo'lishi, rivojlanib borishi va karor topishi bilan nishonlangan. Bulardan oldingi davr cholg'u musiqasining asosiy shakllari fuga bilan syuita bo'lgan bo'lsa, endi o'zi hosil qilgan shakllarning dialektikligi bilan ijtimoiy ongning birmuncha yuksak boskichini aks ettiruvchi sonata ana shunday asosiy shakl bo'lib kolgan edi.

Sonata – simfonik sikli shu kadar umri uzok bo'lib chikdiki, juda xilma-xil milliy musiqa madaniyatlari va uslublarida hozirgi kungacha ham o'z axamiyatini saklab koldi.

XVIII-asr oxiri XIX-asr boshlarida avval Germaniya, Avstriya, Angliya adabiyotida keyinchalik esa musiqa va boshka san'atlarda romantizm shakllangan. Bu shaklni yetakchi tamoili – san'atkorning ijodiy tasavvuri orkali yaratiladigan kundalik turmushi va orzularning, mavjudlik va oily, idial dunyoning bir-biriga keskin qarshi qo'yilishidir.

Kurs ishining dolzarbligi: XVIII asr Evropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari etakchisi Glyuk musiqiy asarlarini asosli xozirgi kundagi ahamiyatini yoritish asos qilib olingan.

Kurs ishining maqsadi: Gluk operalari va jaxon musiqa madaniyatiga qo'shgan xissasini, Vena klassik maktabini yoritib berish.

Kurs ishining ob’ekti: Glyuk operakari va musiqiy ijodiyoti.

Ishning nazariy-metodologik asoslari: Prezident I.A.Karimov asarlari, “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Davlat farmonlari, tadqiqot mavzusiga oid tadqiqotchi olimlar risola va qo’llanmalari hamda darsliklar tashkil etadi.

Kurs ishi: kirish, asosiy qism uchta reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, har bir reja, asosli ravishda yoritilgan.

1.XVIII asr musiqa madaniyati.

Vena klassik maktabi ma'rifatchilik g'oyalariga jamiki dunyoqarashlariyu, uslub xususiyatlari bilan ham, demokratik yo'nalishi bilan ham mahkam bog'langandir. XVIII asr Evropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari turli mamlakatlar ilg'or kishilarining faoliyatida o'ziga xos aksini topdi. Avstriyada bular (frantsuz ma'rifatparvarligining tabiiy va qonuniy ta'sirini aytmaganda) Iosif II ning «ma'rifatli absolyutizmi» deb atalmish davrda jadal rivojlanish uchun turtki bo'ldi. Ko'p millatli mamlakatniig turli viloyatlarida boshlanib turgan dexqonlar ko'plari ta'siri ostida Avstriya hukumati ba'zan liberallarsi berib, dexqonlarni asoratli qaramlikdan ozod etishiga ham majbur bo'ldi.

Avstriyadagi marifatparvar ahiboblar xalq, axvoliga xayrixoxlik bilan qarashar edi.. Ularning qarashlari Vena klassik maktabi kompozitorlarining dunyoqarashi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdn. Aslzoda mansabdorlar saroyida yoki cherkovlarda xizmat qilish, zaruriyat yuzasidan ko'pincha tojdor va unvondor xokimlar did-zavqlarini qondirishga majbur bo'lgan ilg'or iodkor-muziqachilar keng halq ommalari folkloriga tayanib turib, o'zlarining muziqasida atrofdagi voqelikni tiniq umumlashtirilgan obrazlarda xaqqoniy qilib aks ettirib berdilar.

CHunonchi shodlik g'amu hasratlarga to'la jo'shqin va ko'p kdr-I'i hi xayot, insonning ma'naviy dunyosi, dramatik kolliziyalar va turmushidan olingan

manzaralar, g'amgin o'y-fikirlar va tashqi manzaralari — mana shularning hammasi Vena klassiklarining asarlarida o'ziga xos bir tarzda gavdalandi. Ularga xos yuksak insonparvarlik san'atining hayotbaxsh Motsional va g'oyaviy yo'nalishini belgilab berdi.

Aql-idrok va adolatning tantana qilishiga, porloq kelajakka chuqur va samimiy ishonch bilan qarash Vena klassiklariga xos-dir. Gaydn bilan Motsart ijodining optimizmi jaxonga ziyraklik bilan, garmonik tarzda qarashdan tarkib topadi, unda individualizm va refleksiya xususiyatlari yo'qligida ham bilinadi.

Vena klassiklari cholg'u tsiklning shunday bir yuksak tipini yaratdilar, unda butun obraz mazmunining boyligi mukammal badiiy shaklda mujassamlashgan. Tarixan endi qaror topib olgan an'anaviy shakllarda yozilgan Gaydn bilan Motsart simfoniyalari, kontsertlari, kvartetlari, sonatalarida mazmun hamisha belgilab beruvchi negiz bo'lgan; shakl esa, barcha struktura qonuniyatlari saqlab qolgani xolda etarlicha ixcham bo'lib chiqar va har safar obraz mazmuniga, muzikada aksini topmish hayot protsesslariga boshdan-oyoq muvofiq keladigan qilinib, go'yo yangidan yaratilib borar edi. Vena klassiklari asarlarining shakli va mazmuni yuksak darajaga etgan estetik birlikni tashkil etar edi. Ayni vaqtda mavzular materiali hech qachon abstrakt, neytral-betaraf bo'lgan emas; aksincha, bu material obrazlarining yaqqolliqi,

ma'nodorligi, individual xarakterliligi bilan ajralib turadi va shuning uchun ham tinglovchi ongiga markam o'rnashib, esda saqlanib qoldi..

Biroq, Vena klassiklari mavzularining individual xarakterliligi hamisha umumlashtirilishi bilan payvasta bo'lib ketadi; bu klassiklar hayotdagi tasodifiy, yakka bir hodisani qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlab bermasdan, balki ko'pdan-ko'p odamlarning tushunishiga oson bo'lgan tipiq muxim xodisalarni badiiy jixatdan umumlashtirib, gavdalantirib berishadi. Mana shuning uchun ham Vena klassiklarining muzikasi eng keng tinglovchilar doiralarida hanuzgacha hammaga manzur bo'lib keladi.

Vena klassiklarining tonika-dominanta-subdominanta nisbat-lar funktsionalligi printsiptga asoslangan garmonik tili, mavzu va lad kontrastlari, tonallik va modulyatsion tomonlari, olis tonliklarni bevosita taqqoslash va boshqa jihatidan olganda juda boyligi bilan ajralib turadi. Ular uchun asosan gomofon-li-garmonik tafakkur xarakterli bo'lsa-da, xarqalay polifoniya ularga ma'nodorlikka etishmoqlikning (ayniqsa yirik shakllarda) muxim vositasi bo'lib xizmat qilgan. Motsartning polifonik mahorati shu sohadagi eng zo'r yutuqlarning biridir.

Glyukni opera islohotiga olib kelgan ijtimoiy va royavay shart-sharoitlar. Oqimlar kurashida uning tutgan o'rni. Evropa opera

san'atining murakkab va ziddiyatli tarixida Glyuk (1714—1787) tomonidan o'tkazilgan isloxat juda muhim ahamiyatga ega xodisa bo'ldi. Opera o'z taraqqiyotida vaqt-vaqti bilan, ayniqsa umrini yashab bo'layozgan reaksion ijtimoiy kuchlarning estetik qarashlari (Lyulli, Ramo)ni' ham tanqidiy nukta nazardan o'rganib, o'zlash-tirib oldi va isloxtchilik faoliyati natijasida jamiyatning ilg'or qismi estetik talablariga javob bera oladigan yangi klassik muzikali tragediya yaratishga o'tdiyu Vena klassik maktabining eng atoqli namoyandalaridan biri bo'lmish Glyuk Avstriya mada-niyatiga mansub siymo bo'lsa-da, u italyan va frantsuz opera san'atiga aralashib, uni yanada rivojlantirish yo'lini topa bildi.

Ravshanki, «Glyuk revolyutsiyasi — uning kuchi ham shunda edi— birgina Glyuk daxrsining ishi bo'lmay, balki asrlar bo'yi rivojlanib kelgan tafakkur natijasidir. To'ntarilish entsiklopedist-lar tomonidan tayyorlab qo'yilgan, e'lon qilingan va yigirma besh yildan beri kutib kelinayotgan edi¹». CHunonchi, 1757 yili, Glyuk Parijga kelmasidan deyarli 20 yil ilgari, Didro: «... lirik saxlgada chinakam tragediyani barqaror etadigan bo'yo'q iste'dod koshki namoyon bo'lsa»², deb yozgan edi.

¹ R o l l a n Romen. «Muzikanti proshlix dneý». M., 1938, 263-bet.

² D i d r o Deni. Tretya beseda o «Pobochnom sine». Asarlar to'plami, 5- tom, M.,—L., 1936, 169-bet.

O'z asarlarida u muzikali-dramatik san'atni rivojlantirish uchun muxim fikirlarni bayon qildi. Bir vaqtlarda u muzika bilan gavdalantirib ko'rsatishni talab qiladigan katta klassik tragediyaga misol tariqasida ulug' frantsuz dramaturgi Rasinning «Ifigeniya Avlidada» asaridan dramatik saxtdani keltirdi va rechitativ bilan ariyalar o'rnini aniq ko'rsatib berdi. Mana shu parchani uqir ekanmiz, biz guyo Glyuk muzikasini eshitgandek bu-lamiz³. (Didroning istagi bashorat bo'lib chiqdi: Glyukning 1774 yili Parij uchun yozib bergan dastlabki operasi «Ifigeniya Avlidada» edi.) Ko'zga ko'rinarli italyan muzika yozuvchisi Franchesko Alga-rotti opera seria ni tanqid qilar ekan, 1750 yildayoq Glyukning isloxotchilik goyalariga yaqin fikirlarni bayon etdi. CHunonchi, opera uvertyurasi to'g'risida u mana bunday deb yozgan edi: «Simfoniya (ya'ni uvertyuralar — B. L.) vazifasi — bo'lg'usi voqeadan kishini bir qadar xabardor qilish, tomoshabinni pesa-dan kelib chiqadigan his-tuyg'ularni idrok etishga tayyorlashdir, shuning uchun simfoniya pesaning ma'no va mazmunini o'ziga ol-gan bo'lishi kerak». Uning rechitativlar va ularning ariyalar bilan bog'lanishi to'g'risidagi fiqirlari juda diqqatga sazovordir: «Odatda qat'iy yoki jurli rechitativ (recitativo accompagnato) deb ataluvchi rechitativ, chamasi, bizning kunlarimizda boshqala-ri ko'proq taassurot

³ TSitata M. Ivanov-Boretskiyning «Materiali i dokumenti po istorii muziki» kitobidan olindi, 2- tom, 160- bet.
ь8

tugdiradi. Mana shularning hammasi Glyuk opera isloxotining g'oyalari keng ma'noda aytganda «havoda kezib yurganligidan», uning zaruriyati tarixan etilib qolganligidan dalolat beradi.

2. Glyuk operalari.

Ijodining birinchi davri. Glyukning opera teatrlaridagi ishi.

Ilk operalari

Glyukning isloxrtchilik faoliyati badiiy madaniyatning Evro-Padagi eng yirik ikkita markazi — Vena bilan Parijda o'tdi. Lyuli munosabat bilan uning ijodiy yo'lini uch davrga ajratish maqsadga muvofiqdir: birinchisi — isloxotdan oldingi davr; ikkinchisi — Venadagi isloxot davri; uchinchisi — Parijdagi isloxot davri.

1736 yili u Venaga ko'chib keldi. Avstriya poytaxtining hayoti Glyuk ijodining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu erda u XVIII asr birinchi yarmida Venada deyarli tanho xukmronlik qilib turgan italyan operasi bilan bevosita tuqnash keldi (ayt-ganday, Venada Metastazio yashar va ishlar edi); bu erda u turli ko'rinishlardagi Avstriya muzika madaniyatini (turmushga oid qo'shiqlardan tortib kompozitorlik ijodigacha) va uning ko'p millatli xususiyatlarini ham yaxshi bilib oldi.

Glyukning Milanda (1737—1741) ishlashi uni italyan operasi bilan yanada yaqinlashtirdi. Biroq, Glyuk kompozitorlik max^uerati uncha etilmaganligini sezib, mashhur italyan kompozitora, nazar-yotchisi, dirijyori va organchisi Jovanni Battista Sammartini raxbarlitida bilimini mukammallashtirishda davom etdi. Glyuk o'ziga

zamondosh italyan operalarini tinglab, opera ijodini amalda o'zlashtirib olgan bo'lsa, kamer va simfoniya muzikasi endigina vujudga kelayotgan davrda shu muzikaning ajoyib ustozlari bo'lmish Sammartini bilan birgalikda olib borgan mashg'ulotlari unda cholg'u tipdagi muzika tafakkuri vujudga kelishiga yordam berdi. Glyukning etuk operalarida cholg'u negizi (orkestr partiyasi)ning roli kuchayib qolganligi bejiz emas, opera uvertyuralari esa XVIII asr ilk Vena klassik simfonizmining ajoyib namunalaridir.

1741 yili Glyuk Milanda Metastazio tekstiga o'zining «Artaserks» nomli birinchi operasini yozdi. Undan keyin Italiya-ning turli shaharlarida qo'yilgan boshqa operalari: «Demetriy» (1742), «Demofont» (1742), «Tigrana» (1743), «Sofonisba» (1744), «Gipermnestra» (1744), «Arzache» (1744), «Poro» (1744), «Fedra» (1745) yaratilgan. Mazkur operalardan ayrim nomlarga bizgacha etib kelgan. SHartli tomonlari juda ko'p bo'lgan an'anaviy opera seria asoratida turgan bo'lsa ham, Glyuk mana shu ilk operalaridayoq, balki instinktiv tarzda, opera serianing kamchiliklarini yo'qotishga o'ringanligini ta'kidlab o'tish kerak. Kelgusidagi opera islohotining belgilari turli operalarida va har xil darajada (lekin, ayniqsa «Gipermnestra»da) paydo bo'lib boradi: rechitativlar dramatik ma'nodorligining kuchayishi, uvertyuraning opera bilan birmuncha

yaqinroq bog'lanishi shular jumlasidandir. Semmartini bilan o'tkazgan mashg'ulotlari yaxshi ta'sir ko'rsatib borganligi tufayli Glyuk uvertyuraga ko'proq diktat bilan qaray boshladi. Biroq, opera seria estetikasi asoratida qolib kelayotgan va opera isloxtirning juda zarurligini xali to'la-tukis anglamagan kompozitor ijodining to'la etilmaganligi o'zining ilk operalarida muzikali teatrda qat'iy o'zgarishlar yasash yo'liga o'tish uchun Glyukka xalal berdi.

Vena va bir qancha Italiya shaharlaridan tashtsari, Glyukning boshqa mamlakatlarda ham bo'lishi badiiy bilimlari doirasining kengayishi va maxoratining takomillashib borishiga yordam berdi. 1746 yildan boshlab u Angliyada yashadi va Mingotti de~ aksarisi past tabahadan chiqqan kompozitorlar kungil ochar, yuza-ki, engil muzikani talab etuvchi ko'pchilik oqsuyaklarning koloq did-zavqlariga qarama-qarshi ularoq, ilgor, demokrati va pea-listik san'at yaratishdi. SHunday qilib, ko'pdan-ko'p saroy orkestr kapellalari va Praga, Vena, London, Parij, Milan, Drezden, SHtutgart, Mangeym va Evropadagi boshtsa poytaxtlardagi kichikroq kamer ansambllari yo'qsak darajadagi cholg'u muzikasi madannyatining uchoqlari bo'ldi.

Kompozitor bilan ijrochining bitta shaxsning o'zida mujas-sam topishi mana shu davr uchun xarakterli xodisa bo'lib koldi. Eng buyo'q kompozitorlar ko'pincha bir vaqtning o'zida o'z zamoni-ning eng

buyo'q ijrochilari ham bo'ldi: Vivaldi bilan Tartini — mashxur skripkachi, Skarlatti — genial klavesinchi, Bokkerini — ajoyib violonchelchi edi, Motsart klavesin bilan fortepianoni chalish va badiha kilish san'ati bilan tinglovchilarni hayratga solar edi. Odatda kapelmeysterlar o'z asarlarini o'zlari boshchilik qilayotgan kapellalar uchun yaratishardi.

Kompozitorlik amaliyoti bilan ijrochilik amaliyotining bir-biri bilan mahkam bog'lanishi, bulardan birining ikkinchisiga ta'sir ko'rsatib borishi ijodiyotni ham, ijrochilikni ham boyitdi. Eng yirik muzikachilarning ijrochilik san'ati esa tinglovchilarga o'zining g'oyat jo'shqinligi va ijodiy zavqi bilan ta'sir ko'rsatardi.

XVIII asr cholg'u muzikasining xususiyatlaridan biri gomofonli-garmonik to'zilishning xukmronligi bo'ldi. O'sha zamon cholg'u asarlarida obrazlarning yorqin va mavzularning mazmundor chiqishiga asos bo'lgan oxanglar o'z ildizlari bilan xalq qo'shiqlari va operalarga borib taqaladi. Biroq polifoniya gomofonli-garmonik to'zilishdagi asarlarda hamon tarkibiy qism bo'lib ko-laverdi. Yirik cholg'u asarlari ko'pincha muzika tuqimasini jon-lantiruvchi muhim polifonik lavha (epizod) larga ega bo'lib ko-ladi.

Dastlab kamer ansambllari va orkestrga mo'ljallangan muzika o'rtasida aytarli farq yo'q edi, lekin cholg'u muzikada mustaqil janr (sonata, kvartet, trio, simfoniya) lar asta-sekin paydo bo'lib boradi.

«Sonatali-simfonik tsikl» degan tsikl bilan uning barcha turdagi janr (sonata, trio, kvartet, kontsert, simfoniya)larining shakllanishi XVIII asr cholg'u muzikasi soxasida yuzaga kelgan novatorlik hodisasi bo'ldi.

Sonatali-simfonik tsikl odatda uchta yoki turtta ayrim tsislardan iborat bular edi (sonatali allegro vazmin sur'atli qism, menuet¹, tez sur'atli xotima — final).

Birinchi qism — sonatali allegro — eng muxtsh qismdir. U ko'pincha asarnipg konflikt mohiyatini o'ziga jo qilgan bo'ladi. Ekspozitsiyadagi bosh va yordamchi partiyalarning mavzu (tematik) kontrasta va muzika tukthasini juda dinamik ravishda rivojlantirib boruvchi rivojlov qismda o'sha partiyalarning jadal tartibda uozilganligi xech kumga sir emas.

Uch qismli tsiklda menuet, odatda, bo'lmas edi.

Glyuk italyan opera truppasiga boshchilik qildi. Londonda Glyuk Gendelning opera va oratoriya ijodi bilan tanishdi, bu Glyukning o'z muzikali-dramatik printsiplarini lshlab chiqishi uchun (Ttagina ahamiyatga ega bo'ldi. An'anaviy opera seria ga qarshi quradigan xususiyatlar: operani to'zishda bir kolipdagi sxema

qilinganligi, ariya va rechitativlarning dramatiklashtiril-gannligi, xorlarning ahamiyati kuchaytirilganligi Gendelning eng **yaxshi** operalariga xos edida, axir.

Gendel o'zining kasbdosh kichik birodarining (Glyuk Gendel bilan Londonda shaxsan uchrash-I.MI edi) qadriga eta olmagan bo'lsa-da (Gendelning: «Oshpazim Ialts kontrapunktini Glyukdan ko'ra yaxshiroq biladi» degan so'zlari ma'lum), Glyukning opera sohasida tub o'zgarishlar yasash

Zarurligini tushunib olishi uchun uning opera va oratoriyalari muxim stimul bo'ldi. Gendelning opera va oratoriyalari bilan Ganishish opera dramaturgiyasining asta-sekin shakllanib borishi pa. yaigi progressiv printsiplarining qaror topishida o'z rolini o'ynadi.

Glyukning Londonda bo'lishi boshqa jihatdan ham ahamiyatga katta bo'ldi: u o'sha erda ingliz xalq qo'shiklarini o'rgandi va bu uning ijodida o'z izini qoldirdi. Yuqorida tilga olib o'tilgan va turli Evropa mamlakatlarining XVIII asrdagi muzika to'g'risida juda qiziq xotiralar qoldirib ketgan muzika tarixchisi CHARlz Byorni Glyuk to'g'risida mana bunday deb yozgan «U inglizlar didini sinchiklab o'rnagishga intilar edi» deb aytib o'tgan.

3.Glyuk opera islohatining cheklanganligi.

Glyukning Venada balet sohasidagi ishlaripi tilga olib o'tmaydigan bo'lsak ijodining isloxotdan oldingi davriga beriladigan xarakteristika chala bo'lib qoladi. 1755 yili uning «Xitoy shahzodasi» va «Aleksandr» baletlari, 1761 yili esa, aynitssa muhim ahamiyatga ega bo'lgan «Don-Juan» baleti quyildi. Baletni isloxot qilishga, uni syujetsiz divertissementdan dramatik vokea muayyan tarzda rivojlanib boradigan dramatik pantomima-ga aylantirishga o'rinishlar 60-yillarning boshiga taaluqlidir. «Don-Juan» ustida Glyuk Gasparo Anjolini bilan birgalikda ishladi (Gasparo Anjolini ham xuddi Frantsiyadagi Nover⁴ singari baletni isloxot qilishga intilar edi).

Opera seria da yangi elementlarning tuplanib borishi, realistik yunalishdagi xajviy opera soxasida ishlash, balet dramaturgiyasining yangi printsiplari, inson extiroslarini ko'proq taran-num etuvchi ta'sirchan muzika — manashularning hammasi birga qushilib, Glyukni ijodining toji bo'lmish katta muzikali tragediya yaratishga tayyorladi. Glyukning Venadagi ko'p yillik ishi uning ijodida (aynan opera yaratish ijodida) simfonizm elementlari qaror topishiga va Vena klassik maktabi xarakterli muzika obrazlari paydo bo'lishiga olib bordi.

⁴ Jan Jorj Noverr (1727—1810)—atokli frantsuz baletmeysteri, balet isloxatchisi. Avval SHtutgardtda gertsog Karl Evgeniy Vyrtembergskiy saroyida, keyin esa (70- yillarda) Parijda ishladi, shu erda Glyuk u bilan tanishdi.

SHu tariqa, Glyuk ijodiy faoliyatining ikkinchi davrini boshlab bergan opera isloxotiga kirishdi.

Glyukning muzikali teatrdagi isloxrti «Orfey» (1762) bilan boshlandi. Yo'qrrida aytib o'tilganideq bu operaning birinchi (Vena taxririda an'anaviy italyan opera seria sining shartli to-monlari xrlri to'la-tukis yo'q qilinmagan edi, masalan, bosh krx,-ramon partiyasini kompozitor bichilgan-alt uchun yozgan edi (buni dastlab bichilgan xonanda Gaetano Gvadani ijro etgan). Parij, taxriri (1774) uchun bu partiyani Glyuk erkak ovozi — tenorga ber-di (birinchi marta buni tenor Le-Gro ijro etdi). Bundan tash-qari, Parij tahriri balet saxralari va I parda oxirida ijro etiladigan Orfey ariyasi bilan tuldirilgan edi. SHunday qilib,, «Orfey» operasining muallif krlamidan chiqqan ikkita taxriri — Vena (italyan) va Parij (frantsuz) taxriri mavjud⁵. «Orfey» operasining syujeti qadimgi Rim shoiri Vergiliy-ship-«Georgiki» asarida tasvirlangan ma'lum afsonadan olingan. Bu afsonaning o'zida chuqur goyaviy ma'no borki, shu ma'noda Glyuk operasida aksini topgan: qo'shiq aytganida yirtqich hayvonlar yuvosh bo'lib qoladigan va dahshatli furiyalar gazabdan tushadigan afsonaviy xonanda Orfey san'atining sexnrli kuchini gavdalantiradi, kimki shu kuchga ega bo'lsa, u taqiklangan ja-ONga ham o'ta oladi. Bundan tashqari, Evridikadan judo bo'lgan Orfeyning chuqur musibatida, uni hayotga qaytarish yo'lidagi zo'r-ingtilishida sevikli

⁵ Xozir bu opera Berlioz tomonidan 1859 yilda yaratilgan aralash tarir-da ma'lum. Berlioz bosh partiyani mashxur xonanda Polina Viardo-Garsiaga muljallab, Parij taxriri uchun Glyuk tomonidan kiritilgan xamma kushimcha-larni saklab dolgan va Orfey partiyasini yana albt tessiturasiga o'tkazgan.

kishini xalos etishi uchun o'z-o'zini qurbon qilishgacha borib etadigan yor sadoqati g'oyasi ifodalangan.

“XVIII asr 1789 yil Glyuk bilan Motsartning opera ijodini belgilab berdi.

1784 yil Parijda Glyukning isloxatchilik faoliyati.

Glyukning birinchi davri 20 yilni o'z ichiga oladi.

Don - Juan baleti 1761

Orfey operasi 1762

XULOSA

Ma'lumki, ota – bobolarimiz qadimdan bebaxo boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim – tarbiya ong maxsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivoji ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi, va barkamol shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi. Maktab ta'lim – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab – quvvatlashni talab qiladigan umummilliy masaladir.

**«Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan
ajratib bo'lmaydi» degan prezidentimiz**

I.A.Karimov.

Shuni unutmashlik kerakki o'quvchilarni barkamol inson qilib tarbiyalashda har bir ota- ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni qurish zarur. Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'la oladigan, ongli yashaydigan komil inson etib voyaga yetkazish – asosiy maqsad bo'lishi lozim.

Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek adabiyot yashasa - millat yashaydi.

Insonning ruxiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Halqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg'usi topilgani ham shundan dalolat beradi.

Musiqqa sadolari qaysi halq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to'htalib, « Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g'azal-u naqsh aytur erdilar. Va turk-u mo'g'ul, xitoy-yu arab va ajamdin har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi», degan ma'lumotlarni keltiradi.

Mustaqillik yillarida, ulug' bobolarimizning ana shunday an'alarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab- avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko'plab ko'rik - tanlovlar, nufuzli halqaro musiqqa anjumanlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Shu o'rinda darsliklarda chet el musiqqa madaniyati tarixini ham o'rganish reja asosida ekanligi barchamizga ma'lum. Bu Yutrboshimizning biz yoshlarni bir joyda to'xtab qolmasligi, boshqa mamlakatlar tarixini ham o'rganib xulosa chiqarishlari uchun tanlangan eng maqbul yo'l. Biz mana su ishonchga labbay deb javob beramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviya – engilmas kuch –T.: O'zbekiston,2008.
2. R. I.Akbarov. Muzika lug'ati. 1987.
3. K.Rozenshild Istoriya zarubejnoy muziki M. Muzika1969
4. B.Levik Istoriya zarubejnoy muziki M. Muzika 1974
5. M.Druskin Istoriya zarubejnoy muziki M. Muzika 1981
6. A.Kojenova Istoriya zarubejnoy muziki M. Muzika 1988
7. A.X.Trigulova Xorijiy musiqa adabiyoti T. Ilimzie 2009
8. A.X.Trigulova CHet el musiqa tarixi. Romantizm davri T.,Nizomiy nomli TDPU 2008
9. B.Levik CHet el musiqa tarixi T.O'qituvchi.1984



Elektron – ta'lim resurslar

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.Zionet.uz

tdpu-INTRNET. Ped

MUNDARIJA

Kirish.....	3-6
I.Asosiy qism.....	7
1. XVIII asr musiqa madaniyati.....	7 -11
2. Glyuk operalari.....	12-16
3. Glyuk opera islohatining cheklanganligi.....	17-19
Xulosa.....	20-21
Foydalanilgan adabiyotlar.....	22
Ilovalar.....	24